



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



INTERFERENSIYA KOMMUNIKATIV TO‘SIQ SIFATIDA

Qutbiddinova Moxiraxon Faxriddin qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

Makkii2008@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-7585-5113>

+998 90 788 7279

Annotatsiya. *Mazkur maqolada interferensiya hodisasi, uning turlari, interferensiyaning kommunikativ to‘siq sifatida yuzaga chiqishining asosiy sabablari tahlilga tortilgan. Shuningdek, interferensiya tufayli yuzaga keladigan qiyinchilik va xatolarni bartaraf etish yo‘llari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *interferensiya, kommunikativ to‘siq, nutqiy xato, til me‘yori, ikki tilli shaxs.*

Interferensiya ikki tilni biladigan shaxs (bilingv)larning nutqida u qo‘llaydigan tillarning o‘zaro ta‘sirida kuzatiladi. Bu o‘zaro ta‘sir nutqda, tilda, shuningdek, har qanday til osti tizimlarida: fonetikada, grammatikada, leksikada namoyon bo‘lishi mumkin.

Interferensiya masalasini o‘rganishga bag‘ishlangan aksariyat tadqiqotlarda tillararo interferensiya turli etnik guruhlar o‘rtasidagi farqli lisoniy va madaniy dunyoqarash, ularning ensiklopedik va lingvistik bilimlaridagi tavofutlar, shuningdek, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ-xulq-atvor tajribalari tufayli yuzaga keladi. Ona tilining o‘rganilayotgan xorijiy tilga ta‘siri nutqiy xatolar, til me‘yorlarning buzilishi va lisoniy hodisalarning bir tildan boshqa tilga asossiz ravishda ko‘chirilishi bilan izohlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘rganilayotgan tilning lisoniy tuzilishining buzilishiga olib keladi.

Odatda, interferensiya, asosan, lingvistik va psixologik aspektda tadqiq etiladi. Lingvistik nuqtayi nazardan interferensiya an‘anaviy ravishda til aloqasi tufayli har qanday til me‘yorlaridan chetga chiqish natijasi sifatida (Weinreich, 1979) hamda lingvistik o‘zaro bog‘liqlik sifatida qaraladi, bunda til birligi ikki til o‘rtasidagi aloqa natijasida ikki tizimning usuriga aylanadi (Haugen, 1956).

Psixologik jihatdan interferensiya “rivojlangan, o‘ziga xos ko‘nikmalarni bir tildan boshqa tilda yangi shakllangan harakatlarga o‘tkazish, bu yangi ko‘nikmani bajarishda qiyinchiliklarga olib keladi” (<https://www.glossary.ru>), ko‘nikma va qobiliyatlarni bir faoliyatdan boshqasiga o‘tkazish natijasida to‘siqlarning paydo bo‘lishi sifatida ta‘riflanadi.

Psixolingvistikada interferensiya chet tili unsurining ona tili tizimiga uni o‘zlashtirish jarayonida sekin-asta, bosqichma-bosqich kirib borishi jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Binobarin, bilingv shaxsning nutqida bir tilning boshqa til ta‘sirida namoyon bo‘ladigan obyektiv nomuvofiqliklar bilan shartlangan nutq mexanizmlarining o‘zaro ta‘sir jarayoni sifatida izohlanadi (Sorokina, 1971).



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Tadqiqotlarda “interferensiya” tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Shu bois bu tushuncha haqida yagona fikr mavjud emas. Interferensiya ba’zan til me’yoriga, ba’zan “lingvistik” aralashuvga, ba’zan esa faqat tilning grammatik tuzilmasi bilan bog’lanadi.

E. Xaugenning fikricha, “interferensiyani faqat ikki tillilik shakllanishidan avval tilning holatini boshlang’ich nuqta sifatida qabul qilgandagina aniq belgilash mumkin” [Xaugen 1972: 344].

V.Yu. Rozensveyg interferensiyani “bilingv shaxs tomonidan qo’llaniladigan tillar o’rtasidagi muvofiqlik qoidalarining buzilishi bo’lib, bu uning nutqida me’yordan og’ish tarzida namoyon bo’ladi” deb ta’riflaydi [Rozensveyg 1972: 4].

Yu.Yu. Desheriyeva interferensiyani: “...lisoniy yoki nolisoniy (madaniy) unsurlarning o’zaro ta’siri natijasida salbiy til materialining yuzaga kelishi” deb talqin qiladi [Desherieva 1981: 33].

Demak, interferensiya “keng ma’noda ikki tillilik sharoitida til tizimlarining o’zaro ta’sirini; ikki tilli shaxslar nutqida u yoki bu til me’yoring buzilishini ifodalaydi. Tor ma’noda ikki tilli shaxsning og’zaki va yozma nutqida ona tili ta’sirida ikkinchi til me’yorlarining buzilishini anglatadi” [Slovar sotsiolingvistik terminov 2006: 82].

Umuman, ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tilga ko’rsatgan har qanday ta’siri va bu ta’sirning natijasi interferensiya deyiladi. Odatda, interferensiya deganda, faqat nazorat qilib bo’lmaydigan jarayonlar tushuniladi, ongli ravishdagi o’zlashmalar unga taalluqli bo’lmaydi.

“Ona tilining interferension ta’siri masalasi alohida e’tiborni talab qiladi, chunki ikkinchi tilni o’rgatish amaliyotida ikki tillilarning nutqidagi deyarli barcha xatolarni ona tili interferensiyasi bilan izohlashga moyillik paydo bo’lgan, bu esa ko’pincha xatolarni oldini olish va to’g’rilash usullarining noto’g’ri tanlanishiga olib keladi” [Sukunov 1984: 36].

Shunday qilib, interferensiyaning ijobiy yoki salbiy ta’siri, asosan, ona tili va o’rganilayotgan tilning strukturaviy-tipologik xususiyatlari bilan izohlanadi. Bu yerda o’quvchining yoshi, o’qitish sharoitlari va ikkinchi tilning o’ziga xosligi ham muhim rol o’ynaydi. Ona tili va o’rganilayotgan tilning strukturaviy-tipologik xususiyatlarini tahlil qilish ikki tilning o’zaro ta’siri jarayonida konvergent (yaqinlashuvchi) va divergent (farqlanuvchi) til materialini aniqlashni nazarda tutadi.

Xullas, bugungi kunda ikkinchi tilni o’rgatishda ona tilini hisobga olish muammosi dolzarb hisoblanadi. Bu o’rinda ona tilini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishda kompleks tadbirlarni yaratish lozim bo’ladi. Bunday metodik kompleks dastur, darsliklar va o’qituvchi tayyorlovini o’z ichiga oladi. Ikkinchi til materiallari interferensiya tufayli yuzaga keladigan qiyinchilik va xatolarni hisobga olgan holda tuzilishi, ularning oldini olish va bartaraf etish usul va tamoyillari ko’rsatilgan bo’lishi kerak.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Weinreich U. Languages in Contact: findings and problems. – Kiev: Vischa Shkola, 1979. – 264 p.
2. Хауген Э. Процесс заимствования // Новое в лингвистике. – М., 1972. Вып.6. – С. 344-382.
3. Розенцвейг В.Ю. Языковые контакты. – Л., 1972.
4. Дешериева Ю.Ю. Проблема лингвистической интерференции в современном языкознании // Теоретические проблемы социальной лингвистики. – М., 1981.
5. Словарь социолингвистических терминов. – М., 2006.
6. Усманова Ш. Нуткий мулокотда кодлар ўзгариши ва интерференциянинг намоён бўлиши // Ўзбек шарқшунослиги: бугуни ва эртаси. Илмий тўплам. № 6. – Тошкент: ТошДШИ, 2015. – Б. 9-13.
7. Сукунов Х.Х. Структурно-типологический анализ развития национально-русского двуязычия. – Нальчик, 1984.
8. <https://www.glossary.ru>